



## INTERPRETATION OF PHRASES IN TOGAY MURAD'S WORKS

Temirova K.B<sup>1</sup>, Asadullayeva M<sup>2</sup>, Maxmatmurodov S<sup>3</sup>

<sup>1</sup> TerSU teacher, <sup>2</sup> TerSU student, <sup>3</sup> TerSU student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5083103>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> July 2021

Accepted: 05<sup>th</sup> July 2021

Online: 07<sup>th</sup> July 2021

### KEY WORDS

Self-awareness, Uzbek language, literary language, dialect, Surkhandarya oasis, culture of communication, heroic language, style of speech, artistic image, phrases, "Fields left by my father".

### ABSTRACT

*This article praises the richness of the Uzbek language, as well as its attractiveness in fiction, using Uzbek phrases. In particular, the appropriate use of expressive means in the speech of artistic images created in works of art has made it possible to clearly reveal the character traits of artistic images. Phrases based on literary language and dialects are widely used not only in works of art, but also in our daily needs. This article is based on the phrases from Togay Murad's "Fields Left by My Father", one of the rare masterpieces of Uzbek art.*

## TOG'AY MUROD ASARLARIDA IBORALAR TALQINI

Temirova K.B<sup>1</sup>, Asadullayeva M<sup>2</sup>, Maxmatmurodov S<sup>3</sup>

<sup>1</sup> TerDU o'qituvchisi, <sup>2</sup> TerDU talabasi, <sup>3</sup> TerDU talabasi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyul 2021

Ma'qullandi: 05-iyul 2021

Chop etildi: 07-iyul 2021

### KALIT SO'ZLAR

O'zlikni anglash, o'zbek tili, adabiy til, sheva, surxon voxasining so'zlashuv uslubi, muomala madaniyati, qahramon tili, so'zlashuv uslubi, badiiy obraz, iboralar, "Otamdan qolgan dalalar".

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'zbek tilining naqadar so'zga boyligi, shuningdek, badiiy adabiyotlarda ham o'zbek tilidagi iboralardan foydalanib o'z jozibadorlik kasb etishi yuksak baholangan. Ayniqsa, badiiy asarlardagi yaratilgan badiiy obrazlarning nutqida ibora vositalaridan o'rinli foydalanilgani badiiy obrazlarining xarakter-xususiyatlarini yaqqol ochib berishga imkon yaratgan. Nafaqat badiiy asarlarda, balki kunlik ehtiyojimizda ham adabiy til va xalq shevalariga asoslangan holda iboralardan keng qo'llaniladi. Ushbu maqolamizda o'zbek badiiy asarlarining nodir durdonalaridan biri sanalmish Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asaridan o'rin olgan iboralar asos qilib olingan.*

KIRISH:

O'zbek tili so'zlarga boy til hisoblanib, nutqimizda xalq og'zaki ijodi



namunalardan ko'p foydalanamiz. Ayniqsa nutqimizni bezovchi iboralar tilimizning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Biz iboralarda nafaqat kundalik turmushimizda, balki badiiy asarlarimizda ham o'rinli qo'llaymiz. O'zbek adabiyotida A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, P.Qodirov, O.Yoqubov, O'.Hoshimov, Said Ahmad kabi atoqli yozuvchilar yaratgan asarlarida o'zbek xalqi ma'naviyatini, madaniyatini milliy mentalitetini yorqin namoyon etadigan milliy obrazlar mavjud. Bunday obrazlar sirasiga Yusufbek Hoji, Otabek, Solih Mahdum, Oftoboyim, Zebi, Miryoqub, Yo'lchi, Gulnor, Jo'ravoy, Saodat, Shum bola, Navoiy, Bobur Mirzo, Ulug'bek, Munis, Ikrom, Nizomjon, Farmonbibi va boshqa ko'plab ular kabi yorqin timsollarni keltirishimiz mumkin. Mana shunday tipik obrazlar yaratgan yozuvchilarimiz qatoriga T.Murodni kiritsak bo'ladi. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida qo'llangan iboralarning rang-barangligini ko'rib, ularning asar g'oyasini, obrazlarning xarakterini ochib berishdagi o'rni beqiyos ekanligining guvohi bo'lamiz. Yozuvchi o'z asari tilining tabiiyligini ta'minlash uchun ham Surxon vohasi shevalari, so'zlashuv nutqi shakllari, xalq iboralardan mahorat bilan foydalangan. Asar juda sodda tilda, haqiqiy dehqon tilidan bayon etilgani tufayli ham unda qo'llangan jaydari so'zlar, birikmalar va iboralar o'quvchini tezda o'ziga rom etadi. Tog'ay Murod asar qahramoni Dehqonqulning sodda, do'lvor xarakteriga mos iboralarni topib qo'llaydi.

Yozuvchi iboralarni asar qahramonlari tilidan ishlatar ekan, ularning ichki dunyosi, ma'naviyatini yaqqol ko'rsatishga harakat qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda Tog'ay

Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani XX asr o'zbek adabiyotiga va bugungi o'zbek adabiy tiliga katta hissa bo'lib qo'shilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning iboralardan foydalanish mahoratini chuqur va keng ko'lamda o'rganish oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimizdir.

## ASOSIY QISM:

T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani iboralarni tahlil qilar ekanmiz, asarda o'zbek tiliga xos 300 ga yaqin iboraning 400 marotabadan ortiq qo'llanganligining guvohi bo'lamiz. T.Murod iboralarni takror-takror qo'llashdan qochadi. Vaholanki uning so'zlarga kuchli bo'yoq berish maqsadida so'zlarni, so'z birikmalarini, ba'zan butun boshli gaplarni takror qo'llash usuli hammaga ma'lum. Biz romanda boshidan qolsin, esidan chiqmoq, esini yig'moq, gap yo'q-so'z yo'q, gap o'roli kelganda, ichidan qirindi o'tmoq, ko'z ostidan qaramoq, ko'z uzmaslik, ko'zi ketmoq, ko'zini olmaslik, ko'ngli uvushmoq, ko'rmayin hamkuymayin ham, mehmon atoyi xudo, nazar solmoq, oyoq ilmoq, past ketmaslik, qirchinidan qiyilmoq, quloq solmoq, qo'li kosov-sochi supurgi, razm solmoq, so'z bermoq, tili bormaslik, tilga kelmoq, toqati toq bo'lmoq, yo'l bo'lsin, yo'l olmoq, o'pkasini bosolmaslik kabi iboralarninggina ikki, ayrimlarining uchto'rt marta qo'llanganligini ko'ramiz. Bu hol yozuvchining o'z qahramonlari nutqiga huda-behudaga iboralarni kiritib, sun'iy bo'yoqdorlik yaratishdan qochganligini ko'rsatadi. Chindanda, yozuvchi asar bosh qahramoni Dehqonqul nutqida ham, uning onasi Bolxin momo nutqida ham, kolxoz raisi yoki maktab direktori nutqida ham iboralarni ko'p ishlatmaydi. Ishlatganda



ham mo'ljalni aniq oladi. Asar Dehqonqul tilidan bayon etilgan. Oddiy o'zbek paxtakori Dehqonqul nutqi butun bo'y-basti bilan o'zining Surxon vohasi kishisi ekanligini ko'rsatib turadi. Frazologizmlar tarkibida qaysi turkumga oid so'zning yetakchiligiga qarab, ot, fe'l, sifat yoki boshqa komponentli iboralar deb qaraladi. Biz ishimizda frazeologizmlarni semantik ma'no ifodalashiga ko'ra guruhlab o'rganish metodini maqsadga muvofiq deb tanladik. Shunga ko'ra romanda qo'llangan iboralarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Kishi tana a'zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;

2. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;

3. Hayvonlar, o'simliklar nomlarini hamda ular bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.

4. Xalq maqollari, urf-odatlar nomlarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar;

5. Sonlarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.

6. Jins, qarindosh-urug' ma'nolarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.

Kishi tana a'zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar ilmiy adabiyotlarda somatik iboralar deb yuritiladi. Bunday iboralar sirasiga bag'ir, bet, bosh, bo'y, et, ensa, ich, jasad, jon, kalla, ko'z, ko'ngil, musht, orqa, oyoq, o'pka, o'taka, og'iz, qorin, qad, qadam, qosh, quloq, qo'l, soch, ta'b, tirnoq, teri, til, tiz, tomoq, uchcha, yelka, yuz kabi iboralarni kiritish mumkin.

Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar sirasiga esa quyidagilarni kiritisa bo'ladi: anoyi emas, baloga qolmoq, bardosh bermoq, baxti bor ekan, bu dunyodan u dunyosi yaqin, dosh bermoq, el bo'lmoq, falokat oyoq ostida, gazagiga dori emas, havsalasi pir bo'lmoq, holdan toymoq, hovuridan tushmoq, intilganga tole yor, kim degan odam bo'ladi, past ketmaslik, pinagini buzmaslik, rasvoiraddi balo bo'lmoq, taqdir peshonasida bori, toqati toq bo'lmoq, umri o'tmoq, o'ynab qo'yay, qafsiga olmoq, shoyi etmoq va boshqalar.

Hayvonlar, o'simliklar nomlarini hamda ular bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralarga quyidagilarni kiritish mumkin: arpaga uvoq ham bo'lmaydi, it azobida, it egasini tanimaydi, otday bo'lib ketmoq, otliqqa topilmaydi, otliqqa yo'q, otingni sotmolingni sot, og'izga urgan itday, palagi toza, qo'li gul, qo'li kosov-sochi supurgi, semizlikni qo'y ko'taradi, tariqday tirqiratmoq, tulki qiziga to'y berdi, tutday to'kmoq va boshqalar.

Xalq maqollari, urf-odatlar nomlarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar: botar kunni otar tongi bo'ladi, bo'laman degich el bir-birini botirim deydi – bo'lmayman degich el bir-birining etini yeydi, dehqon davlati – yer, kattalar tinch – olam tinch, ko'pga kelgan ko'rgulik, mehmon atoyi xudo, mehnat – mehnatning tagi rohat, ko'z qo'rqqoq qo'l botir, ko'z tarozi – ko'ngil qozi, olisni sho'rvasidan yaqinni yovg'oni yaxshi, oshingni yesada mard yesin – boshingni yesada mard yesin, qari bilgichni pari bilmaydi, qazisan qartasan – axir naslingga tortasan, qish oladan – yoz moladan, ro'zg'orchilik yo'qchilik, xalq bor – haq bor, xalq qo'llasa,



bor bo'ladi – xalq qarg'asa, xor bo'ladi, yer xamir – o'g'it xamirturish, yon qo'shning – jon qo'shning, chilla suv – tilla suv, o'zbekning qonib, mehmon kutgani – podsho bo'lgani va boshqalar.

Sonlarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar: bag'ri bir (ikki) o'pirilib tushmoq, besh ketmoq, bir boshqa bo'lib qolmoq, , bir hadik bosmoq, bir ko'ngli, bir maydon, bir yoqli, gapi juft, ikki qat bo'lmoq, qulog'i qirqta bo'lmoq, to'qqiz qaytgan, yetti pushtigacha, o'ttizda er atangan – qirqida sher atantar va boshqalar.

Jins, qarindosh-urug' ma'nolarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar: akang qarag'ay, ayolga-da bet kerak, bolangga ursin, bor otangga – bor onangga, jigiti gap, odamga bet kerak, otanggizga balli va boshqalar.

Somatik frazeologizmlarining asar qahramonlari fe'l-atvori, ularning ruhiy holati, voqea tasvirlanayotgan vaziyatga munosabati aks etgan. Chunonchi, bag'ir komponentli iboralar tashigan ma'noni alohida qayd etish lozim. Dehqonqulni poraxo'r raisning sherigi sifatida hibsga olayotgan bir guruh avtomatchilarning uxlab yotgan bolalarni ham ayamay xonani ag'dar-to'ntar qilishlari, rahmatlik ayolidan qolgan kiyim-kechaklarni ham avtomat uchi bilan titib, turli tomonga sochib tashlashlari Dehqonqulga yomon ta'sir qiladi. Bu holni u "bag'rim o'pirilib tushdi" deya tavsiflaydi. Yoki Dehqonqulning xotini ayollarga qilinayotgan adolatsizliklarni ko'tara olmay, hatto norasida farzandlari taqdirini o'ylab ham o'tirmay o'ziga o't qo'yishi Dehqonqulga kuchli ta'sir etadi. Bu holni u "kuydi-kuydi – meni bag'rim kuydi" deya tasvirlaydi. Bet komponentli iboralarning ham shunday vaziyatda

qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"da "beti chidaydi-beti chidamaydi" iboralari keltirilgan. Romanda "beti bo'lmadi", "beti chidamaslik" iboralari qo'llangan bo'lib, ular uyalish, nomus qilish, andisha qilmoq ma'nolarini anglatadi. Muallif bu iborani oddiy so'zlashuv nutqiga xos variantini ishlatadi. "Men chaqiribsizlar deya, ichkari kirib ketaberayin dedim – betim bo'lmadi" (OQD, 117-bet).

O'zbek adabiy tilida "boshingdan ordona qolsin" iborasi bor. Bu ibora ayollarning qarg'ishi bo'lib, sen o'lg'in-u, moling egasiz qolsin degan ma'noni bildiradi (O'TFL,47-bet). T.Murod bu iborani boshqa, yangi ma'noda qo'llaydi: "Gulobi ranglari boshidan qolsin – to'rt misqol ko'sak ikki misqol bo'lib qoladi!"<sup>4</sup> (OQD,194-bet). Bu yerda gap biror bir shaxs haqida emas, balki pishib yetilgan g'o'za barglarini quritib to'kish uchun ishlatiladigan zaharli dori magniy xlorat haqida ketyapti. Bu ximikat ishlatilganda hosilning yarmi nobud bo'ladi. Shuning uchun Dehqonqul bu ximikatni boshidan qolsin deb qarg'ayapti.

Tilimizda "ensasi qotmoq" iborasi mavjud (O'TFL330-bet). Bu ibora ranjish ma'nosini bildiradi. T.Murod bu iborani nafaqat ranjish, noxush bo'lish, balki g'azablanish ma'nosida qo'llaydi: "Ivan Ivanovich peshanasi tirishdi. Ivan Ivanovich ensasi qotdi". – Kim-kim?-dedi. Odamsan, sen-a? Sen – gazandasan! Oltinga hirs qo'ygan gazandasan! O'zbeklar – oltinga hirs qo'ygan gazandalar 5(OQD, 233-bet).

Dehqonqulning do'lvorligi, paxtadan boshqa narsani o'ylamasligi, oilasiga, bolalariga, kekxa onasiga, ro'zg'origa





bee'tiborligi, ziyrak, hushyor emasligi uning xotini nutqida qo'llangan "kallasi bormi" iborasida o'z aksini topgan.

"Ayolimiz shahodat barmog'ini chakkasiga nuqib-nuqib ko'rsatdi. "Ha, kallang og'riyaptimi? – dedim. U-uy, u kishida kalla bormi o'zi? – dedi ayolimiz"6.(OQD,102-b). Bu ibora es-hushi joyidami ma'nosini anglatgan.

Xalqimizda "ko'zi to'ymaydi " iborasi mavjud. U har qancha nazar solsa ham qoniqmaslik, har qancha mol-mulkka ega bo'lsa ham, yetarli deb bilmaslik ma'nolarini anglatadi.(O'TFL, 142-bet). T.Murod esa bu iborani inkor ma'noda emas, bo'lishli, tasdiq ma'noda ishlatadi: "Bozorni yaxshi ko'raman! Noz-me'matlardan ko'zim to'yadi. Shirin-shakarlardan ko'nglim to'yadi. Bozorda yeganim oldimda bo'ladi, yemaganim ketimda bo'ladi!"7 (OQD,195-bet). Mana shu kichkina parchada muallif "yaxshi ko'rmoq", "ko'zi to'ymoq", "ko'ngli to'ymoq", "yegani oldida, yemagani ketida" kabi to'rtta iborani qo'llagan. Bu iboralar asarda tasvirlangan Surxon bozorining to'kin-sochinligi, meva-chevalarning mo'lligi, achchiq-chuchuk ziravorlarning ko'pligidan dalolat beradi.

Xalq orasida biror ko'ngilsiz voqea-hodisaning yuz berishi, ba'zan kishining ko'ngliga tushishi holatini ifodalash uchun "ko'ngliga hovur tushdi", "ko'nglini hadik bosdi" iboralar qo'llaniladi. Odatda ko'nglida kechgan bu ruhiy holat kishi yuz a'zolariga ko'chadi. Natijada ko'z, qovoq, yuz-terisi pir-pir uchadi, kishi asabiylashadi va bu qandaydir xunuk xabar belgisi deb qaraladi. Xuddi shunday holat asarda qo'llanilgan va bunda iboralar muhim rol o'ynagan.

"Umrida shunday kun bo'ladi: odam birdan aynib qoladi! Ko'ngligi qil sig'maydi. Ko'ngil bir xijil bo'ladi, bir lanj bo'ladi. Ko'nglini nimadir bir nima barmoq botirib-botirib tirnaydi. Ko'ngilni bir hadik bosib keladi. Ko'ngil tub-tubi nimadir bir nima bo'ladi. Hadik yuzlarga o'tadi. Hadik qaboqlarga o'tadi."8 (OQD,170-b)

Mana shu ruhiy holat Dehqonqulga paymonasi to'lgan bechora xotini o'ziga o't qo'yganligini ma'lum qilgan edi. Bunda birgina ibora bu fojeadan xabar berayotgani yo'q. Voqeadan "ko'ngliga qil sig'maslik", "ko'ngli lanj bo'lmoq", "ko'nglini tirnamoq", "ko'nglini hadik bosmoq", "ko'ngil tubida bir nima bo'lmoq" iboralari biri ikkinchisidan kuchliroq, ta'sirliroq berilishi bilan tasvirning aniq, yorqin chiqishini ta'minlagan. Bu holat faqat dalasini o'ylaydigan Dehqonqulni esankiratib qo'yadi. U hamma narsani unutib uyiga chopadi. Bu vaziyat "ko'ziga ko'rinmaslik" iborasi bilan yanada ravshanlashtirilgan: Ko'zimga dala-da ko'rinmadi. Ko'zimga paxta-da ko'rinmadi. Mototsiklim bilan qishloq uchdim.9(OQD,170-bet).

Shunday qilib aytish mumkinki, yozuvchi T. Murod g'arb-u sharq adabiyotining yirik namoyondalari asarlarini chuqur o'zlashtirgani tufayli badiiy tasvirda so'z va iboralarni qo'llashga mohirona yondashadi. Roman hajm jihatdan ham u qadar katta emas. Uning bob va qismlari ham juda siqiq, hatto ayrim qismlar atigi bir yoki bir nechta gapdangina iborat. Asarda iboralar asosan bosh qahramon Dehqonqul tilidan beriladi. Shuning uchun ham ular xalqona, oddiy insonlarga tushunarli, ta'sirlidir. Asarda qo'llanilgan iboralarni ular anglatgan ma'nolariga ko'ra ot, fe'l, sifat va boshqa



komponentli guruhlarga bo'lish mumkin. Bu iboralar orasida kishi tana a'zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar ko'pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, mavhum tushunchalarni, hayvonlar va o'simliklar nomlarini, urf-odat nomlarini, sonlarni, jins, qarindosh-urug'ni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar ham talaygina. Bu iboralarning barchasi roman mavzusi, g'oyasi, obrazlarning fe'l-atvori, dunyoqarashi, fikr-mulohazasi, ruhiyati, ichki va tashqi dunyosini ochib berishga xizmat qilgan.

## Xulosa

O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod o'tgan asrning 90-yillar o'zbek adabiyotida voqea bo'lgan "Otamdan qolgan dalalar" romanini yaratguncha "Yulduzlar mangu yonadi", "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Momo yer qo'shig'i" kabi qissalari bilan el orasida tanildi. T.Murod o'ziga xos uslubga ega yozuvchi, hatto uning qahramonlari ham boshqa yozuvchilarning qahramonlariga mutlaqo o'xshamaydi. Chunonchi Ziyodulla - boshi taqir kal ("Ot kishnagan oqshom"), kurashchi polvonlar Nasim polvon ko'zi oqib tushgan, Abil polvon tentak ("Yulduzlar mangu yonadi"), "Otamdan qolgan dalalar" romani qahramoni Dehqonqul esa yuzi oqarib qolgan insonlar. Ularning tashqi qiyofalari bilan ichki dunyosi orasida ham ma'lum o'xshashliklar, shuningdek farqlar ham ko'zga tashlanadi.

T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani asar bosh qahramoni, oddiy o'zbek dehqoni, paxtakor, o'z davrining qurboni Dehqonqul tilidan hikoya qilinadi. Asarning Dehqonqul tilidan

hikoya qilinishi yozuvchiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham Dehqonqul o'z nutqida "jelovchi" sheva vakillarining so'zlarini ham, oddiy xalq tilidagi tasviriy ifodalarni ham, so'zlashuv nutqiga xos iboralarni ham ishlataveradi. Bu hol oddiy kitobxonni, uning ruhiyatini, ichki dunyosini, o'sha davrdagi vaziyatni tushunib yetishga imkon yaratadi.

Asarda uch yuzdan ortiq iboralar qo'llangan bo'lib, ular turli vaziyatlarda to'rt yuz martdan ko'proq ishlatilgan. Asarda qo'llangan iboralarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Kishi tana a'zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.
2. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.
3. Hayvonlar, o'simliklar nomlarini hamda ular bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.
4. Xalq maqollari, urf-odatlarini nomlarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.
5. Sonlarni ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.
6. Jins, qarindosh-urug' ma'nolarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar.

Bu guruhlardan somatik frazeologizmlar asarda juda keng qo'llanilgan. Bu haqda prof. Yo'ldoshev: "Leksik somatizmlarning iboralar sostavida keng qo'llanishi bunday so'zlar tilimizning lug'at sostavidagi eng qadimgi so'zlar ekanligi bilan ham izohlanadi. Shunga ko'ra leksik somatizmlarning ibora hosil qilish imkoniyatlari ancha mahsuldor bo'lib, bu iboralar asosan tildagi o'z qatlamiga



mansubligi bilan xarakterlanadi” – deganida mutlaqo haqdir.

T.Murod asar qahramonlarining dunyoqarashi, ma’naviyatiga xos so’z va iboralarni mahorat bilan qo’llaydi. Ular

qahramon xarakterini, ijobiy yoki salbiy xislatlarini ochishga xizmat qiladi. Bir so’z bilan aytganda, yozuvchi T.Murod o’zbek adabiy tilidagi iboralardan ham, xalq so’zlashuv uslubidagi iboralardan ham unumli va o’rinli foydalana olgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бердиев Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. I,II,III қисмлар. – Самарқанд, 1976, 1979, 1983.
2. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988.
3. Йўлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, Суғдиёна, 1998.
4. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд, 2002.
5. Йўлдошев Б. Услубшунослик ва фразеологиянинг долзарб муаммолари. – Самарқанд, 2007.
6. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида дексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991.
7. Маматов А. Ўзбек тилида фразеологик шаклланиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
8. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962.
9. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970.
10. Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1955.
11. Содиқова М. Қисқача ўзбекча русча фразеологик луғат. – Тошкент: ЎзСЭБР, 1989.
12. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, Ўқитувчи, 1978.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, ҚБТ, 1992.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 1-5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 2008.
15. Shartli qisqartmalar:
16. ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати, икки томли. 1-, 2-томлар. - М., 1981.
17. ЎТИЛ-5 – Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш томли. I-V томлар. – Тошкент, 2006.
18. ЎТФЛ – Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, ҚБТ, 1992.